

Ushbu test varianti 30ta test topshirig'idan iborat.

Kitobda yopiq va ochiq turdagi test topshiriqlari mavjud.

Yopiq turdagi test topshiriqlarida berilgan to'rtta javobdan bitta javobni tanlash va javoblar varaqasida tanlangan javobga mos bo'lgan xarfni (A, B, C yoki D) topshiriq raqamiga mos qatorga yozish kerak.

Ochiq turdagi test topshiriqlarida javobingizni javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga to'liq va aniq tarzda yozish kerak.

1. Fonetik hodisalar (tovush o'zgarishlari) haqida berilgan ma'lumotlarning nechitasi to'g'ri?

1. Sifat yasovchi qo'shimchalar qo'shilishi natijasida tovush tushishi, tovush ortishi, tovush almashishi kabi fonetik hodisalar kuzatilishi mumkin.

2. Sonning ma'no turlarini hosil qiluvchi qo'shimchalarning ayrimlari tovush o'zgarishi bilan yozilishi mumkin.

3. **-qi** sifat yasovchi qo'shimcha har qanday so'zga qo'shilganda asosda tovush o'zgarishi kuzatiladi.

4. Jo'nalish kelishi qo'shimchasi qo'shilishi natijasida asosda tovush almashishi va tovush ortishi kabi fonetik hodisalar kuzatilishi mumkin.

A) 2 tasi B) 3 tasi C) 4 tasi D) 1 tasi

2. *Ijodkor fikr qamrovi juda keng, iqtidori o'tkir, tabiatan hokisor, ruhan bedor shoirdir. U oshiq sifatida toleysizligi, ma'naviy-axloqiy tannazuldan hasrat chekadi, ammo tafakkur va taxayyul maqomi baland bu shoir g'am-g'ussaga yengilmaydi, aksincha, hasrat uning maslagiga, g'ussa esa hissiyotlariga qaramdir.*

Ushbu parchadagi imloviy jihatdan xato yozilgan barcha so'zlarni aniqlang va mazkur so'zlarni to'g'rilab ko'chiring.

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

3. *Oldiga maslahat so'rab kelgan o'g'liga otasi Mayli o'g'lim zargarlik bo'lsa zargarlik-da Biror ustaga shogird tushib ko'r debdi.*

Ushbu parchada tushirib qoldirilgan tinish belgilarini aniqlang va ularni to'g'ri ketma-ketlikda yozing.

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

4. *Agar qanoting qisqaligini o'zing bilsang, uzoqqa va baland uchma. O'zgalarga ortiqcha izzat-hurmat ko'rsatadigan inson bora-bora o'zini kamsitishga o'tib ketadi. Ota-onangizga har doim yumshoq ohangda muomala qiling, garchi sizni ranjitishgan bo'lishsa ham, o'z noroziligingizni sezdirman.*

Ushbu parcha haqida berilgan hukmlardan nechitasi to'g'ri?

1. Ushbu parchada asosi bir turkum doirasida shakldoshlik hosil qila oluvchi so'z qatnashgan.

2. Ushbu parchada sifat yasovchi qo'shimcha bilan bir xil shaklga ega bo'lgan fe'l yasovchi qatnashgan.

3. Ushbu parchada fe'l yasovchi qo'shimcha bilan bir xil shaklga ega bo'lgan munosabat shakli ishtirok etgan.

4. Ushbu parchada olmosh turkumiga oid so'z bilan shakldoshlik hosil qiluvchi so'z qatnashgan.

A) 3 tasi B) 4 tasi C) 2 tasi D) 1 tasi

5. Qaysi gapdagi bilan yordamchisi o'rnida chiqish kelishigi qo'shimchasini ham, orqali ko'makchisini ham almashtirib qo'llash mumkin?

- A) *Ijtimoiy tarmoqlardan olgan ma'lumotlaringizni biz bilan ham o'rtoqlashib turing.*
- B) *Qo'shni ovulga yetib olish uchun xotiralari ko'milgan ana shu yolg'izoyoq so'qmoq bilan yurdi.*
- C) *Qiz hamon qo'ng'iroqdek ovozda kular, sokin bog' uning shodon qahqahasi bilan to'lgan edi.*
- D) *Bu masalani bir necha usul bilan yechish mumkin ekan-u, aniq javob bir xilligicha qolaverar ekan.*

6. *Yaqinini yo'qotgan inson u bilan dildan gaplashishni istashi, xayolan suhbatlashishi, sog'inishi, ko'rgisi kelishi tabiiy holdir. Asarda tasvirlangan tabiat manzaralari va asar qahramoni tilidan bayon qilingan voqea-hodisalarning hammasi biri ikkinchisini to'ldiradi.*

Ushbu parchadagi so'zlarning tarkibi haqida berilgan hukmlardan nechitasi to'g'ri?

1. Tarkibi asos + so'z yasovchi qo'shimcha + harakat nomi + kelishik qo'shimchasi tartibida joylashgan fe'l mavjud.
  2. Tarkibi asos + o'zlik nisbat + sifatdosh qo'shimchasi tartibida joylashgan fe'l mavjud.
  3. Tarkibi asos + so'z yasovchi qo'shimcha + majhul nisbat + sifatdosh qo'shimchasi tartibida joylashgan fe'l mavjud.
  4. Tarkibi asos + harakat nomi + egalik qo'shimchasi tartibida joylashgan fe'l mavjud.
- A) 3 tasi    B) 1 tasi    C) 2 tasi    D) 4 tasi

7. *Yomon so'zlarga xasis, yaxshilariga saxiy, ayoli bilan inoq, oilasi, ya'ni yaqin kishilariga tanbeh berishdan saqlanadigan, davralarda serfayz kishi dunyoning ko'rkidir.*

Gapdagi sifatlar haqida berilgan qaysi hukmlar to'g'ri emas?

1. Ushbu gapda ikki xil daraja shaklidagi sifatlar qatnashgan.
  2. Ushbu parchada qatnashgan sifat turkumiga oid so'zning kesim vazifasini bajarishi kuzatiladi.
  3. Ushbu parchada otlashgan sifat mavjud emas.
  4. Ushbu parchada sifatning faqat bir ma'no turi qatnashgan.
- A) 2, 3    B) 1, 2, 3    C) 1, 3    D) 2, 3, 4

8. *Nohaqlik uchun tayinlangan jazodan hech kim qutulib keta olmaydi, agar buning badalini o'zi to'lamasa, farzandlari to'lashadi, farzandlari ham qutulib ketishsa, bu haq nevaralariga qoladi.*

Gapda qatnashgan fe'llar haqidagi hukmlarning nechitasi to'g'ri?

1. Ushbu gapda tub va yasama fe'llar ishtirok etgan.
  2. Ushbu gapda yetakchi qismi o'zlik nisbatda bo'lgan ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi mavjud.
  3. Ushbu parchada qatnashgan nisbat qo'shimchalarining barchasi o'timli-o'timsizlik ma'nosining o'zgarishiga sabab bo'lgan.
  4. Ushbu parchada aniq nisbat, III shaxs ko'plik, shart maylidagi fe'l qatnashgan.
- A) 3 tasi    B) 4 tasi    C) 1 tasi    D) 2 tasi

9. Qaysi javobda yordamchi so'z turkumining ikki turiga oid birliklar qatnashgan?

- A) *Qissada qahramonning tilidan sanab o'tilgan ta'kidlardan tashqari yana ikki voqea ham keltiriladi, bular izlanishlar-u tadqiqotlar bilan javobi topiladigan jumboqlar emas.*
- B) *"Ko'hna dunyo"ni o'qiganimizdan keyin yozuvchining adabiy-estetik qarashlari orqali asarni yuksak badiiy talqin etish mumkinligiga ishonch hosil qilamiz.*
- C) *Muallif amir Doniyol tilidan go'yo uning shaxsiy masalasi sifatida qo'yilgan quyidagi shartlarda bir nechta muhim iqtisodiy-ijtimoiy muammoni o'rta tashlagan.*
- D) *Ijodkor, balki, o'z xalqining uzoq o'tmishini, ma'naviy-madaniy merosini ko'z-ko'z qilmoqchi bo'lgandir, nima deysiz?*

10. *Asarning har bir satrini sinchkovlik bilan o'qir, aftidan, ulug' shoir qalamidan to'kilgan javohirlarni terib olgani intilar edi.*  
Tobe bog'lanishlar haqidagi to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) Hokim qismi modal so'z bilan ifodalangan so'z birikmasi mavjud.
- B) Hokim qismi sifat bilan ifodalangan so'z birikmasi mavjud.
- C) Tobe qismi ravish bilan ifodalangan so'z birikmasi mavjud.
- D) Tobe qismi olmosh bilan ifodalangan so'z birikmasi mavjud.


11. *O'g'lim Hasanjon, halim kishining uch alomati bordir: u orasi buzilgan kishi bilan aloqasini tiklar; bunday kishilar qo'lidan hech ish kelmaydigan, ya'ni o'z tirikchiligini o'zi ko'rishi qiyin bo'lgan odamlarga ehson qilar; unga kimki zulm qilsa, o'shani afv etar.*

Berilgan hukmlardan nechtasi to'g'ri?

- 1. Kiritma, undalma va uyushiq bo'laklar qatnashgan.
- 2. Ajratilgan aniqlovchi qatnashgan.
- 3. Fikrni dalillash ma'nosini beruvchi kiritma qatnashgan.
- 4. Uyushiq to'ldiruvchining aniqlovchiga tobelanishi kuzatiladi.

- A) 2 tasi    B) 3 tasi    C) 1 tasi    D) 4 tasi

12. Quyidagi chizmaga mos keluvchi ergash gapli qo'shma gap tuzing.



Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

13. "Alpomish" dostoni voqealari bayoni to'g'ri berilgan javobni toping.

- A) Boybo'ri Barchinning choparlariga hech narsa demagan bo'lsa ham, o'z jigari, ukasining qizini o'zga yurtga bermaslikni istagani uchun yashirib qo'ygan xatini Alpomishga berishga majbur bo'ladi.
- B) Alpomish Barchindan xat olgach, singlisi Qaldirg'ochoyimning qarshiligiga ham qaramasdan, yigitlik g'ururi, hamiyati jo'sh urib, Qalmoq yurtga o'tlanadi.
- C) Qultoy garchi qul bo'lsa ham, uning oilada aytgani aytgan, degani degan bir odam edi, shuning uchun hech kimning ruxsatisiz Alpomishni Qalmoq yurtdan qaytarishga o'zida jur'at topa oladi.
- D) Qalmoqdan kelgan choparlarning ot ustida turib salom berishlari hamiyatiga teggan bo'lsa-da, ularning Barchin yuborgan kishilar ekanligini bilgan Boybo'ri izzat-ikrom ko'rsatadi, ammo yolg'iz o'g'lini ayagani uchun choparlarga tayinli javob aytmaydi.

14. Yusuf Xos Hojib qalamiga mansub "Qutadg'u bilig" asari qahramoni Oyto'ldi baxt va davlatning belgilarini ta'riflashda qaysi ramziy vositalardan foydalanadi?

- 1) to'p; 2) kumush kursi; 3) oy; 4) shakar;
- 5) quyosh; 6) pichoq

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

15. Alisher Navoiy qalamiga mansub “Sab’ai sayyor” dostonining voqealari bayoni necha o’rinda to’g’ri berilgan?
1. Shoh Navdar maktub orqali Nu’mondan Jobirning qo’liga asir tushib qolgan Mehrni qutqarish uchun Suhaylni qo’shin bilan jo’natishini iltimos qiladi.
  2. Jobir kuzatuvchilari orqali shoh Navdarning shikorga o’ch ekanligini bilgach, hiyla-nayrang ishlatib uni o’z qo’shinidan uzoqlashtiradi va shohsiz qo’shinni yengib, qo’shinsiz qolgan Navdarni ham asir oladi.
  3. Mehr Suhaylning bog’dagi chohga tashlanganini bilgach, kanizaklariga chohni toptiradi va chohga sochlarini arqon o’rnida tashlab Suhaylni qutqaradi.
  4. Shoh Nu’mon asirga tushgach, Jobir uning qo’shiniga: “Jon kerak bo’lsa, qoching, ko’nglingiz tilagan manzilga keting. Agar sizni bu atrofda yana ko’rib qolsam, shubhasiz, o’ldiraman”, – deya qo’yib yuboradi.
  5. Suhayl Jobirni yenggach, Mehr bilan topishadi, shundan so’ng bog’dagi boshqa asirlarni ham ozod qilmoqchi ekanligini aytganda, bog’da faqat ikki asir borligi ma’lum bo’ladi.

A) 2 B) 4 C) 1 D) 3

16. Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub quyidagi she’riy parchaga oid to’g’ri ma’lumotni belgilang.

*O’qi zaxmini\* ko’rub har yon tanimda el degay  
Kim, bu ko’hi\* dardning ul lolayi Nu’monidur.*

*Sel emasdur yer yuzin tutqon – ko’zumning  
yoshidur!*

*Ra’d\* emasdur ko’kka chirmoshqon – ko’ngul  
afg’onidur\*!*

(zaxm\* – jarohat; ko’h\* – tog’; ra’d\* – yashin, chaqmoq; afg’on\* – nola, fig’on)

- A) Ushbu she’riy parchada undosh tovush raviv vazifasini bajargan.
- B) Ushbu she’riy parchada muqayyad qofiya qo’llangan.
- C) Ushbu she’riy parcha tuyuq janriga mansub.
- D) Ushbu she’riy parchada radif qo’llangan.

17. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani voqealari qaysi javobda to’g’ri ko’rsatilgan?

- A) Qobil do’stlarining ko’magi bilan kamida ellik nafar yigit qo’riqlab yotgan o’rda qo’rg’onidan o’tadi va zindondagi Sultonolini qutqaradi.
- B) Sultonali mansabga erishish umidida do’sti Anvarga xiyonat qiladi va buning evaziga sarmunshiylik lavozimiga loyiq ko’riladi.
- C) Anvar do’sti Sultonaling qilgan xiyonatiga javoban uni mulzam qilish maqsadida xon o’rdasiga ulkan bir jasorat bilan kirib boradi.
- D) Anvarning muvaffaqiyatini ko’ra olmagan kimsalar Anvar bilan xonning orasini buzish maqsadida Ra’noning go’zalligi ta’rifini xonga yetkazadilar.

18. *Ko’zing qaro sening, qoshlaring qaro,  
Yuzlaring oq sening, kulishlaring oq.  
Qo’lingdagi ta’na toshlaring qaro,  
Menga g’amgin boqib turishlaring oq.  
Ushbu band bilan boshlanuvchi “Grafika”  
she’rining muallifini aniqlang.*

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko’chirib yozing.

19. G’afur G’ulomning “Sog’inish” she’ridagi: *“Xoki anjir tugab, qovun g’arq pishgan  
Baxtli tong otar chog’ uni kuzatdim”* hamda *“O’zing to’qib ketgan katta savatda  
To’latib shaftoli uzib chiqaman”* satrlari qanday badiiy-g’oyaviy mazmun uchun xizmat qilgan?

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko’chirib yozing.

20. Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani qahramoni Jo’lomon obrazi haqida berilgan to’g’ri ma’lumotni toping.

- A) *Bo’layotgan hodisalarni kech anglaydigan, ammo qo’lidan hech qanday ish kelmaydigan, shuning uchun qullikni afzal biladigan kishi.*
- B) *Faqatgina jismoniy qo’rquv tufayligina o’z xo’jayiniga sadoqat bilan xizmat qiladigan, ich-ichidan o’z yaqinlari yoniga qaytishni istasa ham, buni sirtiga chiqara olmaydigan kishi.*
- C) *Zo’ravonlik tufayli o’zligidan ayrilgan, shuning uchun atrofda bo’layotgan voqealarni idrok qila olmaydigan, xotirasidan mahrum bo’lgan shaxs.*
- D) *Osoyishta hayotni sevadigan, shuning uchun atrofda voqealarni ataylab bilmaslikka oladigan, ularga o’zining hech qanday aloqasi yo’qday tutadigan shaxs.*

21. Qaysi javobda Tog’ay Murod qalamiga mansub “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi qahramoni Bo’ri polvon kolxoz raisi bo’lgan davrida onasining vafoti munosabati bilan gazetada yozilgan ta’ziyani o’qigach, gazeta nashriyotiga borib to’polon ko’taradi.

Asar mazmuniga asoslangan holda ushbu voqeani to’g’ri izohlab yozng.

Javob: \_\_\_\_\_


**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko’chirib yozing.

22. Qaysi qatorlarda asar nomi, asar qahramoni va u haqidagi ma’lumotlar o’zaro mos ravishda tog’ri berilgan?

№	Badiiy asar	Adabiy qahramon	Adabiy qahramon haqida ma’lumot
1	“Yulduzli tunlar”	Darvesh gov	Suv yetishmovchiligi paytida oddiy fuqarolarning tarafini oladi, shuning uchun uni ko’pchilik amaldorlar yoqtirmaydi, podsho sha’niga nomunosib gap, yolg’on ma’lumot tarqatganlikda nohaq ayblanib qatl qilinadi
2	“Ulug’bek xazinasi”	Umarshayx mirzo	Ramazon oyida jordan kabutarxonasi bilan birga qulab halok bo’ladi, vafotidan keyin taxtini o’n ikki yashar farzandi – valiahd shahzoda egallaydi
3	“Yulduzli tunlar”	Muzaffar mirzo	Tashqi dushmanga qarshi birlashish taklifi bilan kelgan shoirga o’zaro taxt talashishlar natijasida norasida yoshida xazon bo’lgan o’g’lining alamini ko’nglidan ketkiza olmaganini aytadi, ichki nizolar tufayli o’z inisi bilan birlasha olmay, oqibatda saltanatni tashqi dushmanga boy berib qo’yadi
4	“Navoiy ”	Majididdin parvonachi	Podshoning ishonchli kishilari qatoriga kirib oladi, hukmdorni o’zining idora ishlaridagi qobiliyatiga ham ishontira oladi, o’z ig’volari natijasida Alisher Navoiyni saltanatdan uzoqlashtirib, Astrabodga badarg’a qilinishida muhim rol o’ynaydi

- A) 2, 3    B) 1, 4    C) 3, 4    D) 1, 2, 4

23. Quyidagi diagramma asosida to'g'ri shakllantirilgan gapni aniqlang.



- A) 11-"A" sinfda 2020-2021-o'quv yilining birinchi va ikkinchi choragida "yaxshi" bahoga o'qiydigan o'quvchilar ko'rsatkichi o'zgarmagan.
- B) 2020-2021-o'quv yili davomida 11-"A" sinf o'quvchilarining umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi va bilim darajasida o'zgarish kuzatilmagan.
- C) 11-"A" sinfda 2020-2021-o'quv yili davomida "a'lo" bahoga o'qiydigan o'quvchilar ko'rsatkichi o'zgarmagan.
- D) 11-"A" sinfda "qoniqarli" bahoga o'qiydigan o'quvchilar soni 2020-2021-o'quv yilining uchinchi choragida ikkinchi chorakka nisbatan ko'paygan.

Quyidagi matnni o'qing va ushbu matn asosida berilgan to'rtta topshiriqni bajaring.

INVESTITSİYALAR VA INVESTITSIYA FAOLIYATI HAQIDA  
Xorijiy investitsiyalarning huquqiy rejimi va xorijlik investorlarning huquqlari

1. Xorijlik investor qonunlarda nazarda tutilgan huquqlar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasidagi investitsiya natijasida olingan, o'ziga tegishli bo'lgan ixtirolarni, foydali modellarni va sanoat namunalarini xorijda hamda O'zbekiston Respublikasida patentlash to'g'risida mustaqil ravishda qaror qabul qilish huquqiga ega. Chet davlatlarning fuqarolari bo'lgan xorijlik investorlarga, shu jumladan, xorij investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish korxonalarini tashkil etishga investitsiyalar kiritgan muassisa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan shartlarda O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi soddalashtirilgan tartibda beriladi.
2. Xorij investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining muassislari bo'lgan xorijlik investorlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan shartlarda O'zbekiston Respublikasidan chiqmasdan muddatini uzaytirish imkoniyati bilan "investitsiya vizasi"ni, ularning oila a'zolari (turmush o'rtog'i, ota-onasi, farzandlari) esa "investitsiya vizasi" amal qilish muddatiga mos ravishda "mehmon vizasi"ni olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasidan tashqarida bo'lgan xorijlik investorlarga "investitsiya vizasi" turidagi viza O'zbekiston Respublikasi Tashqi Ishlar Vazirligi tomonidan, O'zbekiston Respublikasi hududidagi xorijlik investorlarga esa Ichki Ishlar Vazirligi tomonidan beriladi. Xorijlik investorlarga "investitsiya vizasi" turidagi viza va O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini berish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.
3. O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega yoxud "investitsiya vizasi"ga ega bo'lgan xorijlik investorlar va ularning oila a'zolari (turmush o'rtog'i, ota-onasi, farzandlari) quyidagi huquqlarga ega:
  - O'zbekiston Respublikasi hududida ishga joylashish;
  - O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan teng huquqlar asosida tibbiy va ta'lim xizmatlaridan foydalanish;
  - O'zbekiston Respublikasining ta'lim muassasalarida o'rta va oliy ta'lim olish.

24. Matnda muassis so'zi qanday ma'noda qo'llangan?

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

25. Quyida berilganlardan matnning 1-, 2-, 3-qismlari mazmuniga mos ma'lumotlarni aniqlang (javob uchun ajratilgan joyga faqat matn qismining raqami va berilgan ma'lumotning harfini moslab yozing).

- a) xorijlik investorlarning O'zbekistonda yashash uchun ruxsat olish ma'muriy tartibi bayon qilingan;
- b) xorijlik investorlar va ularning oila a'zolari (turmush o'rtog'i, ota-onasi, farzandlari) ning O'zbekistonda yashash davomida amal qilishi shart bo'lgan majburiyatlari belgilab berilgan;
- c) xorijlik investorlarning O'zbekistonda yashash jarayonidagi salomatligi bilan bog'liq muammo tug'ilganda, bu muammoni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'lishi kafolatlanganligi bayon qilingan;
- d) xorijlik investorlarning boshqa mamlakatda mualliflik huquqini tasdiqlovchi hujjatni olishiga oid huquqlari haqida bayon qilingan.

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

26. Matn mazmuniga asoslangan holda to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
- A) Xorijlik investorning "investitsiya vizasi"ning amal qilish muddatiga mos ravishda uning ota-onasi ham "investitsiya vizasi"ni olish huquqiga ega.
- B) Xorijlik investor O'zbekiston Respublikasidagi investitsiya natijasida olingan, o'ziga tegishli bo'lgan ixtirolarni faqat O'zbekiston Respublikasida patentlashi majburiy qilib belgilab qo'yilgan.
- C) O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega xorijlik investorlarning farzandlari akademik litsey va kollejlarda o'qish huquqiga ega.
- D) O'zbekiston Respublikasidan tashqarida bo'lgan xorijlik investorlarga "investitsiya vizasi" turidagi viza va O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasini berish tartibi investorning fuqaroligi mansub bo'lgan davlat tomonidan belgilanadi.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidan olingan quyidagi she'riy parchani o'qing va keyingi uchta topshiriqni bajaring.

*Bo'ldi yaqinkim bu saxovat emas,  
Ahli saxo\* muni saxovat demas.*

*Yoyar anga supraki, ul och emas,  
Berur anga to'nki, yalang'och emas.*

*Xizrg'a yetgach tutar obi hayot,  
Misr shakarrezig'a\* habbi nabot\*.*

\*ahli saxo – saxovatli kishilar

\*shakarrez – shakar sochuvchi, shakar tarqatuvchi

\*nabot – novvot

28. Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu she'riy parchaning mazmuniga oid ma'lumotlardan nechtasi to'g'ri?
1. Ushbu she'riy parchada saxovatni isrof qilishdan farqlash lozimligi bayon qilingan.
  2. Ushbu she'riy parchada och odamlarning boshqalarga ziyofat bera olmasligi achinish bilan tilga olingan.
  3. Ushbu she'riy parchada kimki egnidagi to'nini o'ylamasdan o'zgalarga berib yuborsa, o'zi yalang'och qolishi aytilgan.
  4. Ushbu she'riy parchada hazrati Xizrning Misr shahriga borib obi hayot va shakarni qo'lga kiritgani bayon qilingan.
- A) 4 B) 3 C) 2 D) 1

27. Matnning 2-qismidagi imloviy xato bilan yozilgan so'zlarni aniqlang va ushbu so'zlar imlodagi qaysi qoidalarga zid yozilganligini yozma bayon qiling. Javobingizni 1-3 ta gap shaklida ifodalang.

Javob: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

29. Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu she'riy parchada qanday she'riy san'atlar qo'llangan?
- 1) talmeh; 2) tasdir; 3) tanosib; 4) tajohil ul-orif; 5) tardi aks

Javob: \_\_\_\_\_

**Diqqat!** Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.



**30.** Alisher Navoiy qalamiga mansub ushbu she'riy parchadagi badiiy unsurlar haqidagi to'g'ri javobni aniqlang.

- A) *Ushbu parchada muqayyad qofiya mavjud emas.*
- B) *Ushbu parchada asos oxiridagi tovushning raviy vazifasini bajarishi kuzatiladi.*
- C) *Ushbu parchada undosh tovushning raviy vazifasini bajarishi kuzatilmaydi.*
- D) *Ushbu parchadagi barcha baytlarda radif qo'llangan.*